DEMOKRATIK JAMIYATDA INSON HUQUQLARINING O’RNI

Po’latova Mashhura Zafarbek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti Advokatlik faoliyati yo’nalishi magistranti
Email:mashhurapolatova27@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada demokratik jamiyatda inson huquqlarining tutgan o‘rni, ularning huquqiy davlat barpo etishdagi ahamiyati hamda jamiyat taraqqiyotidagi roli tahlil qilinadi. Inson huquqlari demokratik tizimning ajralmas qismi bo‘lib, shaxs erkinligi, tenglik va adolat tamoyillarining huquqiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada inson huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda normativ-huquqiy va xalqaro-huquqiy hujjatlar, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalari doirasida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlash mexanizmlari va ularni himoya qilishning amaliy jihatlari yoritib beriladi.

Tadqiqot natijasida demokratik jamiyatda inson huquqlarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so’zlar:demokratik jamiyat, inson huquqlari, erkinlik, qadr-qimmat, institutlar, siyosiy huquqlar, ombudsman.

РОЛЬ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В ДЕМОКРАТИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Пулатова Машхура Зафарбек кизи
Магистрант направления «Адвокатская деятельность» Ташкентского государственного юридического университета
Электронная почта: mashhurapolatova27@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется роль прав человека в демократическом обществе, их значение в построении правового государства, а также их влияние на развитие общества. Права человека являются неотъемлемой частью демократической системы и выступают как правовое выражение принципов свободы личности, равенства и справедливости. В статье рассматриваются конституционные основы прав человека, в частности в рамках Конституции Республики Узбекистан, а также нормативно-правовые и международно-правовые документы, включая нормы Всеобщей декларации прав человека. Кроме того, освещаются механизмы обеспечения прав человека и практические аспекты их защиты.

В результате исследования обосновывается, что обеспечение прав человека в демократическом обществе является приоритетным направлением государственной политики.

Ключевые слова: демократическое общество, права человека, свобода, достоинство, институты, политические права, омбудсман.

THE ROLE OF HUMAN RIGHTS IN A DEMOCRATIC SOCIETY

Pulatova Mashhura Zafarbek kizi
Master’s Student in the Advocacy Program at Tashkent State University of Law
Email: mashhurapolatova27@gmail.com

Abstract: This article analyzes the role of human rights in a democratic society, their importance in building a rule-of-law state, and their impact on social development. Human rights are an integral part of a democratic system and represent the legal expression of the principles of individual freedom, equality, and justice. The article examines the constitutional foundations of human rights, particularly within the framework of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as normative-legal and international legal documents, including the norms of the Universal Declaration of Human Rights.

Furthermore, the mechanisms for ensuring human rights and the practical aspects of their protection are highlighted.

The research substantiates that ensuring human rights in a democratic society is a priority direction of state policy.

Keywords: democratic society, human rights, freedom, dignity, institutions, political rights, ombudsman.

Bugungi globallashuv sharoitida demokratik jamiyat qurish jarayonida inson huquqlari masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Inson huquqlari har qanday demokratik davlatning asosiy tamoyili, jamiyat taraqqiyotining muhim mezoni hamda huquqiy davlat barpo etishning poydevori hisoblanadi. Demokratik jamiyatning mohiyati, eng avvalo, shaxs erkinligi, qonun ustivorligi va tenglik prinsiplarining amalda ta’minlanishida namoyon bo’ladi.

Inson huquqlari tushunchasi xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujatlarda o’z ifodasini topgan. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasining 2-bo’limi Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari deb nomlangan bo’lib, 19-64 moddalarni o’z ichiga oladi hamda Konsititutsiyamizning 19-moddasida: O’zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konsititutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi.[1] Inson huquq va erkinliklari har kimga tug’ilganidan boshlab tegishli bo’ladi. O’zbekiston Respublikasida barcha fuqorolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo’lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi qayd etilgan. Bundan tashqari, Inson Huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi insoniyat tarixidagi eng muhim xalqaro hujjatlardan biri bo‘lib, uning yaratilishi Ikkinchi jahon urushi dahshatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Urush yillarida millionlab insonlarning

[1] O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. www.lex.uz

hayoti xavf ostida qolishi, genotsid va ommaviy qatag‘onlar inson huquqlarini xalqaro miqyosda mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirdi.

1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etildi va uning asosiy maqsadlaridan biri sifatida inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish belgilandi.[2] 1946-yilda BMT huzurida Inson huquqlari bo‘yicha komissiya tuzildi. Mazkur komissiya tarkibiga turli davlat vakillari kiritildi va ular inson huquqlariga oid yagona xalqaro hujjat loyihasini ishlab chiqishga kirishdilar.

Deklaratsiya loyihasini tayyorlash jarayonida AQSh vakili Eleanor Roosevelt muhim rol o‘ynadi. U komissiya raisi sifatida turli davlatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash va umumiy kelishuvga erishishda katta hissa qo‘shdi. Hujjat ustida ikki yil davomida muhokamalar olib borildi.

Nihoyat, 1948-yil 10-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Parij shahrida Deklaratsiya qabul qilindi.[3] Ovoz berish jarayonida ko‘pchilik davlatlar hujjatni qo‘llab-quvvatladi. Shu kundan boshlab 10-dekabr butun dunyoda Inson huquqlari kuni sifatida nishonlanib kelinadi.

Deklaratsiya dastlab tavsiyaviy hujjat bo‘lgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan u xalqaro huquqning muhim manbasiga aylandi. Keyinchalik qabul qilingan ko‘plab xalqaro shartnomalar, jumladan 1966-yildagi inson huquqlariga oid paktlar, aynan shu Deklaratsiya tamoyillariga asoslandi.[4]

Deklaratsiyaning birinchi moddasida barcha insonlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘ilishi ta’kidlanadi. Har bir shaxs aql va vijdonga ega bo‘lib, bir-biriga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo‘lishi lozimligi qayd etiladi. Bu qoida inson huquqlarining asosiy falsafiy negizini tashkil etadi. Hujjatda insonning yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlanadi. Hech kim qiynoqqa solinmasligi, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga duchor

[2] www.wikipedia.uz
[3] Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi: 1945-yil 26-iyun. – San-Fransisko, 1945.
[4] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt: 1966-yil 16-dekabr // BMT Bosh Assambleyasi. – Nyu-York, 1966.

etilmasligi belgilangan. Shuningdek, qonun oldida tenglik, adolatli sudlov, aybsizlik prezumpsiyasi kabi tamoyillar mustahkamlangan. Deklaratsiyada fuqarolik va siyosiy huquqlar bilan bir qatorda, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar ham e'tirof etilgan. Jumladan, mehnat qilish, ta'lim olish, dam olish, ijtimoiy ta'minotdan foydalanish, mulkka egalik qilish huquqlari har bir insonning asosiy huquqlari sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, fikr, so'z, vijdon va din erkinligi hamda tinch yig'ilish va birlashish huquqlari ham muhim demokratik qadriyat sifatida e'tirof etiladi.

Muhimi shundaki, Deklaratsiyada barcha huquqlar irqi, millati, jinsi, tili, dini, siyosiy qarashlari yoki boshqa belgilaridan qat'i nazar, har bir insonga teng ravishda tatbiq etilishi belgilangan. Bu esa inson huquqlarining universalligi va umumiyligi tamoyilini ifodalaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida inson huqulari sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumlada: 2023-yilda yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari himoyasi yanada kuchaytirildi.

– "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili mustahkamlandi;

– Shaxsning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi alohida belgilandi;

– Ijtimoiy davlat tamoyili kiritildi;

– Qiynoqlarga qarshi kafolatlar kuchaytirildi.

Bu o'zgarishlar inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash maqsadida bir qator institutlar faoliyat yuritmoqda:

– O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman);

– Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz;

– Sud-huquq tizimidagi islohotlar.

Ombudsman fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashda muhim rol o'ynaydi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlar:

– Sud mustaqilligini ta'minlash;

– Advokatura institutini mustahkamlash;

– Qiynoqlarning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirish;

– “Habeas corpus” tamoyilining keng qo‘llanilishi.

Bu islohotlar adolatli sudlovni ta’minlashga xizmat qilmoqda.[5]

Gender tengligi va ijtimoiy himoya:

– Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish;

– Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi qonunchilikni kuchaytirish;

– Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini ta’minlash.

Bu yo‘nalishlar ham inson huquqlarini rivojlantirishning muhim qismi hisoblanadi.

O‘zbekiston inson huquqlari sohasida bir qator xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan, jumladan:

– Fuqorolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;

– Qiynoqlarga qarshi konvensiya.

Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida inson huquqlarini ta’minlash demokratik jamiyat barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Inson huquqlari shaxs erkinligi, qonun ustuvorligi va tenglik tamoyillarining amaliy ifodasi bo‘lib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati rivojining poydevorini tashkil etadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinishi insoniyat tarixida yangi bosqichni boshlab berdi va inson huquqlarining universalligi, ajralmasligi hamda tengligi tamoyillarini mustahkamladi. Mazkur hujjat va undan kelib chiqqan xalqaro paktlar bugungi kunda ham milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim mezon bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy va sud-huquq islohotlari, inson sha’ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e’tirof etish, gender tengligi hamda ijtimoiy himoya yo‘nalishidagi chora-tadbirlar inson huquqlarini real hayotda ta’minlashga

[5] Qiynoqlarga hamda shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolarga qarshi konvensiya: 1984-yil 10-dekabr // BMT. – Nyu-York, 1984.

qaratilgandir. Xalqaro majburiyatlarga sodiqlik va milliy institutlar faoliyati esa bu jarayonning izchil davom etayotganini ko‘rsatadi.

Demak, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish nafaqat davlatning vazifasi, balki har bir fuqaroning ham ma’naviy burchidir. Faqat inson huquqlari to‘liq ta’minlangan jamiyatdagina barqaror taraqqiyot, ijtimoiy adolat va chinakam demokratiyaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan (o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.

2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan // BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi 217 A (III). – Parij, 1948.

3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt: 1966-yil 16-dekabr // BMT Bosh Assambleyasi. – Nyu-York, 1966.

4. Qiynoqlarga hamda shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazolarga qarshi konvensiya: 1984-yil 10-dekabr // BMT. – Nyu-York, 1984.

5. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuni: 1997-yil 24-aprel (so‘nggi tahriri bilan). – Toshkent, 2023.

6. Saidov A.X. Inson huquqlari nazariyasi: darslik. – Toshkent: Adolat, 2018. – 320 b.

7. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2019. – 456 b.

8. Inson huquqlari: darslik / mas’ul muharrir A.X. Saidov. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. – 384 b.

9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi: 1945-yil 26-iyun. – San-Fransisko, 1945.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 296 b.

11. www.wikipedia.uz